

Oncomorphology.

Lecture-10. Mesenchymal tumors

Lecturer: Avazbek Mamataliyev Ro'zuvaevich, Docent, Candidatus Medicine

Nazorat savollari

Assignment

1. Fibroma nima?
2. Tuton hujayralari uchraydigon o'sma qaysi?
3. Lipositlar va lipoblastlarni yetuklik darajasiga qarab liposarkomani turlari qaysilar?
4. Xavfsiz gemangioperisitoma o'ziga hosligi?
5. Xavfli gemangioendotelioma va gemangioperisitoma boy o'smaga izoh bering?

Javoblar:

1. Fibroma nima?

Fibroz to'qimani yaxshi sifatli o'smasi, ko'pincha terida, bachadonda, sut bezlari va boshqa joylarda uchraydi. Miya qutisi asosida, orqa miya kanalida va ko'z soqqasidagi fibromalar – xatarli o'zgarishlarni keltirib chiqaradi.

2. Tuton hujayralari uchraydigon o'sma qaysi?

Dermatofibroma - ko'pincha oyoq terisida sariq yoki qo'ng'ir rangda tugun sifatida uchraydi. Ko'p miqdorda kapillyarlardan va oraliqlarida fibroblas, makrofag, fibrosit hujayralari saqllovchi ritmik tuzilma xosil qilgan biriktiruvchi to'qimalardan iborat. Bu o'smalarda lipid, gemosiderin saqllovchi ko'p yadroli gigant hujayralari uchrashi xarakterlidir.

3. Lipositlar va lipoblastlarni yetuklik darajasiga qarab liposarkomani turlari qaysilar?

✓ asosan yuqori differensiallashgan hujayralardan iborat liposarkoma

✓ asosan miksoid (embrional) hujayralardan iborat liposarkoma

✓ asosan yumaloq hujayralardan iborat liposarkoma

✓ asosan polimorf hujayralardan iborat liposarkoma

4. Xavfsiz gemangioperisitoma o'ziga hosligi?

Teri va oyoqlarni muskullari orasidagi qatlamlarda joylashgan tomir o'smasi. U ko'payotgan perisitlar bilan o'ralib, xaotik joylashgan kapillyarlardan iborat. Hujayralar orasida argirofil tolalar ko'p bo'ladi.

5. Xavfli gemangioendotelioma va gemangioperisitoma boy o'smaga izoh bering?

Angiosarkoma - qon tomirlarni yomon sifatli o'smasi, endotelial yoki perisitar xarakterli atipik hujayralarga boy. O'sma o'zini o'ta xavfliligi va metastazlarni juda erta berishi bilan xarakterlanadi

Test savollari

1. Jigar xavfsiz o'smalariga kiradi

- A) mioma
- B) xandroma
- C) mieloma
- D) gemangioma

ANSWER: D

2. Klinikada ko'proq qaysi sarkoma uchraydi:

- A) karsinosarkoma
- B) endometrial sarkoma
- C) leyomiosarkoma
- D) aralash mezodermal sarkoma

ANSWER: C

3.«Noxodji kinlimfoma» ni sinonimini ko‘rsating:

- A) limfadenopatiya
- B) fibroadenoma
- C) limfosarkoma
- D) limfogranulematoz

ANSWER: C

4.Yaxshi sifatli o‘smalarga qaysi kasallik kirmaydi

- A) leyomiomalar
- B) xoriokarsinomalar
- C) endometriozlar
- D) fibromiomalar

ANSWER: B

5.Lipoma qaysi klinik guruxga kiradi.

- A) I
- B) II
- C) IV
- D) III

ANSWER: A

6.Tuxumdon rakini kaysi kasalliklar bilan differensiatsiyasi?

- A) tuxumdon kista va kistomalari
- B) surunkali kolit
- C) sut bezi fibroadenomasi
- D) bachadon bo‘yni eroziyasi

ANSWER: A

7. Bronxogen kistalar odatda kuks oralig`ining qaysi qismida joylashadi

- A) orqa qismida
- B) oldingi qismida
- C) yonbosh qismida
- D) diafragma ustida

ANSWER: B

8. Chambar ichak rakining toksiko-anemik klinik formasi ichakning qaysi bo`limida joylashganda sodir bo`ladi?

- A) o`ng tomonida
- B) chap tomonida
- C) ko`ndalang ichakda
- D) sigmasimon ichakda

ANSWER: A

9. O`pka pereferik raki kechishi:

- A) klinika yutal bilan boshlanadi
- B) tezda yuzaga chikadi
- C) sekin-asta
- D) rengenogrammada ko`rqisdananiklanib qoladi

ANSWER: C

10. Qalqonsiomon bezning asosiy o`sma o`chog`ini olib tashlangandan bir necha yil o`tgach, metastaz qayerda ko`proq uchraydi?

- A) oshqozon osti bezi
- B) jigar
- C) o`pka, suyak
- D) bosh miya

ANSWER: C